

Tarmoqlanish operatori va mantiqiy amallar

1. NOT mantiqiy amalining vazifasi nima?

*NOT (emas) mantiqiy inkor amali bo'lib, u o'zidan keyin yozilgan shartning inkor etilgan qiymatini beradi. Masalan, $A * B$ Paskal tilida $NOT(\wedge=fi)$ shaklida yoziladi.*

2. AND mantiqiy amalining vazifasi nima?

AND (va) - mantiqiy ko'paytirish amali bo'lib, u ikki yonida joylashgan shartlarning har ikkalasi rost bo'lgandagina rost qiymat beradi. Masalan, $A < X < B$ Paskal tilida $(A <= X) AND (X <= B)$ shaklida yoziladi.

3. OR mantiqiy amalining vazifasi nima?

OR (yoki) - mantiqiy qo'shish amali bo'lib, u ikki yonida joylashgan shartlardan hech bo'lmaganda bittasi rost bo'lgandagina rost qiymat beradi. Masalan, $A < 0$ yoki $A > 9$ Paskal tilida $(A < 0) OR (A > 9)$ shaklida yoziladi.

4. Turli mantiqiy amallar ketma-ket kelsa, ularni bajarish ketma- ketligi qanday?

Mantiqiy ifodalarda birinchi navbatda NOT amali, ikkinchi navbatda AND, uchunchi navbatda OR amali bajariladi. Agar mantiqiy ifodalarda qavslar qatnashgan bo'lsa, ularning ichidagi ifoda birinchi bo'lib bajariladi.

5. Teng kuchli amallar ketma-ket kelsa, bajarilish tartibi qanday?

Teng kuchli amallar ketma-ket kelganda, amallar chapdan o'ngga qarab bajariladi.

6. Paskalda mantiqiy amallar qo'llanilganda shartlar qanday yoziladi?

Mantiqiy amallar qo'llanilganda shartlar qavs ichida yoziladi.